

Akademik litsey dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo'yicha bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash

| T/r | Savollar |
|---------------------------------|--|
| Davlat va huquq asoslari | |
| 1. | Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering. |
| 2. | Huquq normasida sanksiyaning asosiy mazmun va maqsadini yoritib bering. |
| 3. | Huquqiy tizim deganda nimani tushunasiz? |
| 4. | Huquq va adolat tushunchalarining o'zaro nisbati. |
| 5. | Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta'rif bering. |
| 6. | Davlat boshqaruvining Respublika shakliga xos bo'lgan belgilarni O'zbekistonning davlat boshqaruv shakliga bog'lagan holda o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering? |
| 7. | Normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini tahlil qiling. |
| 8. | Huquq funksiyalari ikki xil nuqtai-nazardan, ya'ni maxsus yuridik (tor ma'noda) va umumijtimoiy (keng ma'noda) tasniflanadi. Shundan kelib chiqib, huquqning Maxsus yuridik funksiyalar to'g'risida o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering? |
| 9. | Huquq normalari ijtimoiy normalar tarkibiga kiruvchi ahloq, odat, odob, jamoat tashkilotlarining normalaridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib, huquq normasi belgilari yuzasidan o'z fikringizni bayon eting? |
| 10. | Huquq normasining tuzilishi deganda – uning yuridik faoliyati erkinligini ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan zarur elementlarning majmui yoki birligi tushuniladi, shundan dispozitsiya to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring? |
| 11. | “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagicha tushuncha berilgan: “Normativ-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy |

| | |
|-----|---|
| | normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir". Shundan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarning turlari to'g'risida fikr yuriting? |
| 12. | Jamiyat hayotining eng asosiy islohotchisi davlat va uning organlari hisoblangan bir davrda, ommaviy huquqning sohasi hisoblangan "Ma'muriy huquq" keng rivojlanib kelmoqda. Sizdan Ma'muriy huquq tushunchasi yoritib berishingizni so'raymiz. |
| 13. | Ma'muriy-huquqiy munosabatlar qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega? |
| 14. | Ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi)ni muhokama qiling. |
| 15. | Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubini yoritib bering. |
| 16. | Ma'muriy-huquqiy normalarning tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qiling. |
| 17. | Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyekti, obykti va mazmunini atroflicha muhokama qiling. |
| 18. | Barchamizga ma'lumki, davlat ham fuqarolik munosabatlarida boshqa subyektlar kabi teng huquq asosida huquqiy munosabatlarga kirishadi. Davlatning fuqarolik huquqi subyekt sifatida yoritib bering. |
| 19. | Nikoh shartnomasi tushunchasi va mazmunini yoritib bering. |
| 20. | Nikoh shartnomasining mazmuni, uni o'zgartirish va bekor qilish tartib-taomillarini atroflicha tahlil qilgan holda javob bering. |
| 21. | Nikoh tuzish tartibi va shartlarini oila qonunchiligi asosida atroflicha tahlil qilib bering. |
| 22. | Oila qonunchiligiga ko'ra, er va xotinning umumiy mulkini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering. |
| 23. | Oila qonunchiligi asosida er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish tartib-taomillarini tushuntirib bering. |
| 24. | Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda ulushlarni aniqlash tartibini oila qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda javob bering. |
| 25. | Oila huquqiga ko'ra ota-ona va voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat? |
| 26. | Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslarini misollar asosida tushuntirib bering. |

| | |
|-----|---|
| 27. | Oila huquqiga ko‘ra er va xotinning huquq va majburiyatlarini ko‘rsatib o‘ting. |
| 28. | Oila huquqi va uning tamoyillarini yoritib bering. |
| 29. | Oila huquqi tushunchasi. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi masalalarini tushuntirib bering. |
| 30. | Oilaviy-huquqiy munosabatlar. O‘zbekiston Respublikasida Oila huquqining manbalarini ko‘rsatib o‘ting. |
| 31. | O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq er va xotinning umumiy mulkiga nimalar kirishini tushuntirib bering. |
| 32. | O‘zbekiston Respublikasi Oila huquqi bo‘yicha nikohning haqiqiy emas deb topilishi asoslarini tushuntirib o‘ting. |
| 33. | Bugungi kunda fuqarolik-huquqiy normalarni beshta kichik tarmoqlarga bo‘lish an‘anaga aylangan. Mazkur tarmoqlarni tahlil eting. |
| 34. | Mehnat huquqi subyektlari sifatida kimlar ishtirok eta oladi? Ularga qo‘yiladigan talablarni tahlil qiling? |
| 35. | Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslarini muhokama qiling. |
| 36. | Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi evaziga mehnat munosabatlarining subyektlari doirasi kengayib bormoqda. Ularni atroflicha muhokama qiling. |
| 37. | Jinoyat tarkibi elementlari va ularning belgilarini tahlil eting. |
| 38. | Jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini bayon eting va amaliy misollar keltirib o‘ting. |
| 39. | Ma‘lumki so‘ngi paytlarda mamlakatimizda ekologiyaga e‘tibor keng qaratilmoqda, shu o‘rinda Ekologik nazoratni tushuntirib bering. |
| 40. | Ekologiya sohasidagi jinoyat turlarini misollar yordamida tushuntirib bering. |
| 41. | Fuqarolarning ekologik huquqlarini amalga oshirilishi yoki ekologik huquqlarining aniq bayon qilinmaganligi ba‘zan ularni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib fuqarolarning ekologik huquqlarining kafolatlari mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot bering. |
| 42. | Jinoyat qonuni prinsiplarini yoritib bering. |

| | |
|-------------------------------|---|
| 43. | Jinoyatning belgilari va jinoyat tarkibiy elementlarining tavsifini muhokama qiling. |
| 44. | Jinoyatlarni tasniflash nima maqsadda amalga oshirilishini va jinoyat tasnifini tushuntirib bering. |
| 45. | Jinoyat tarkibi elementlarini atroflicha muhokama qiling. |
| 46. | Jinoyat tarkibining fakultativ belgilari ayting va tushuntirib bering. |
| 47. | Xalqaro ommaviy huquqning xalqaro xususiy huquqdan farqli jihatlarini amaliy misollar yordamida tushuntirib bering. |
| 48. | Xalqaro va milliy huquq o'rtasidagi farqli jihatlarini hamda ularning o'zaro ta'sirini yoritib bering. |
| 49. | Xalqaro huquq subyektlarini O'zbekiston Respublikasi misolida tushuntirib bering. |
| 50. | Hozirgi davrda xalqaro huquqning roli hamda uning O'zbekiston huquqiy tizimidagi ahamiyatini yoritib bering. |
| Davlat va huquq tarixi | |
| 1. | Davlat va huquq tarixi fanini ilmiy bilishning mustaqil sohasi sifatida o'rganilishini tushuntirib bering. |
| 2. | Davlat va huquq tarixining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlashtiring. |
| 3. | Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo'lib (sistemaga solib) o'rganish ahamiyatini tushuntirib bering. |
| 4. | Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va huquqning rivojlanishi xususiyatlarini tahlil qilib bering. |
| 5. | Qadimgi Sharq mamlakatlari huquq manbalariga umumiy tavsif bering. |
| 6. | Manu qonunlarida mulk va unga egalik qilish huquqini tahlil qiling. |
| 7. | Xammurabi qonunlariga ko'ra qarz shartnomasini tushuntirib bering. |
| 8. | "Avesto"da nikoh va oila huquqi masalalarining tartibga solinishini tushuntiring. |
| 9. | Antik dunyoda huquqning rivojlanishini tahlil qiling. |

| | |
|------------|---|
| 10. | Arxont Salon tomonidan o‘tkazilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarni tushuntirib bering. |
| 11. | Rim huquqida imperator hujjatlari (konstitutsiyalari) haqida tushunchalar bering. |
| 12. | Amir Temur saltanatida markaziy boshqaruv organlari haqida tushuntirib bering. |
| 13. | Amir Temur davlatida sud va politsiya hokimiyatining tashkil etilishi. |
| 14. | AQSHdagi 1791-yilgi “Huquqlar to‘g‘risidagi bill” qonun hujjatlari to‘g‘risida ma’lumot bering. |
| 15. | Xitoy Xalq Respublikasi va uning davlat tuzumi haqida tushuntirib bering. |
| 16. | Buyuk ozodlik xartiyasining ahamiyatini tushuntirib bering. |
| 17. | AQSH konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibini tushuntirib bering. |
| 18. | AQSH konstitutsiyasiga kirgan dastlabki o‘zgartirishlarning ahamiyatini tushuntirib bering. |
| 19. | Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga asosan Imperatorning vakolatlarini tushuntirib bering. |
| 20. | Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga asosan ijroiya hokimiyati tizimini tushuntirib bering. |
| 21. | Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga asosan sud hokimiyati tizimini tushuntirib bering. |
| 22. | Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga asosan mahalliy hokimiyat organlarini tushuntirib bering. |
| 23. | Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibini tushuntirib bering. |
| 24. | 1789-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” ning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering. |
| 25. | Fransiyaning 1791-yilgi Konstitutsiyasining mohiyatini tushuntirib bering. |
| 26. | “Napoleon fuqarolik kodeksi” ning tuzilishini tushuntirib bering. |
| 27. | Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasiga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlar haqida tushuntirib bering. |
| 28. | 1867-yilgi ingliz saylov islohotini tushuntirib bering. |

| | |
|-----|---|
| 29. | 1911-yilgi ingliz saylov islohotini tushuntirib bering. |
| 30. | Kanadaning “dominion statusini” tushuntirib bering. |
| 31. | 2017-yilda Turkiya Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni tushuntirib bering. |
| 32. | “Xabeas korpus” akti haqida tushuntirib bering. |
| 33. | 1871-yilgi Germaniya Reyxstagining tuzilishini tushuntirib bering. |
| 34. | 1861-yilgi “Manifest” (krepostnoylikni tugatish) ning mazmunini tushuntirib bering. |
| 35. | Yaponiyadagi 1872-1873-yillaridagi agrar islohotlarni tushuntirib bering. |
| 36. | Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari |
| 37. | Avestoda jinoyat masalasi haqida nimalar bayon qilingan? |
| 38. | Qadimgi Rim huquqi deganda nimalarni tushunasiz? |
| 39. | Qadimgi Rim huquqiga oid atamalar (lotincha) dan misollar keltiring. |
| 40. | Delikt majburiyatlar nima va uning qanday turlari bor? |
| 41. | XII jadval qonunlari haqida nimalarni bilasiz? |
| 42. | Yustinian kodekslari haqida nimalarni bilasiz? |
| 43. | Rim huquqi tarixi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi? |
| 44. | Qadimgi Xitoy huquqiy tizimining muhim xususiyatlarini ayting? |
| 45. | Geliyeya haqida nimalarni bilasiz? |
| 46. | Qadimgi Sharq mamlakatlarida huquqning asosiy manbalarini sanab bering? |
| 47. | Manu qonunlari haqida gapirib bering? |

| | |
|---|--|
| 48. | Hammurapi qonunlari haqida gapirib bering? |
| 49. | Qadimgi Rim qonunchiligida qarz shartnomasi haqida nimalarni bilasiz? |
| 50. | Qadimgi Hindiston huquqining asosiy belgilari haqida fikr yuriting? |
| O‘zbekiston Konstitutsiyasi. Konstitutsiyaviy huquq. | |
| 1. | Konstitutsiyaviy huquqning yetakchi huquq sohasi sifatidagi o‘rnini yoritib bering. Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurulishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan tavsiflab bering. |
| 2. | Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan asoslab bering. Ushbu aloqadorlik amaliyotda qanday o‘z ifodasini topganini tushuntirib bering. |
| 3. | Konstitutsiya muqaddimasi g‘oyalarning normativ xususiyatga egaligi hamda konstitutsiya normalarida aks etishi xususida so‘z yuriting. Ushbu g‘oyalarning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rnini huquqiy jihatdan izohlab bering. |
| 4. | O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering. Xorijiy mamlakatlardagi davlat boshqaruv shakllaridan farqlovchi jihatlari va belgilarini tushuntirib bering. |
| 5. | O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishning konstitutsiyaviy asoslarini tushuntirib bering. |
| 6. | Demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi deganda nimani tushunasiz? Huquqiy manbalarda ushbu prinsip o‘zining qanday ifodasini topgan. |
| 7. | Fuqarolikka ega bo‘lish va yo‘qotish asoslarini tushuntirib bering. Bu asoslarning amaliyotda qo‘llanilish tartibini tushuntirib bering. |
| 8. | Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishi hamda kafolatlarining huquqiy asoslarini tushuntirib bering? |
| 9. | Saylov tizimining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering. |
| 10. | Fuqarolar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoritib? Davlatning fuqarolar huquq va erkinliklarining himoyachisi sifatidagi o‘rniga batafsil to‘xtaling. |

| | |
|-----|---|
| 11. | Sud orqali huquq va erkinliklarni himoya qilish deganda nimani tushunasiz? Huquq va erkinliklarni himoya qilishning boshqa yo'llari va institutlarini tushuntirib bering. |
| 12. | Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to'xtaling. Shaxsiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud. |
| 13. | Vijdon va e'tiqod erkinligi deganda nimani tushunasiz? O'zbekistonda vijdon va e'tiqod erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlarini tahlil qiling. |
| 14. | Konstitutsiyada alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga doir normani belgilanishi ahamiyati nimadan iborat. |
| 15. | Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari bobi belgilanishining ahamiyati nimadan iborat? |
| 16. | Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli", deb yozilgan normaning ahamiyatini gapirib bering. |
| 17. | Konstitutsiyada belgilangan shaxsning erkin harakatlanish huquqini tushuntirib bering. |
| 18. | Amaldagi Konstitutsiyada belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi", degan normaning mazmun-mohiyatini tushuntiring. |
| 19. | Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud? |
| 20. | Hokimiyatlar bo'linish prinsipining mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering. |
| 21. | Siyosiy institutlar deganda nimani tushunasiz? Siyosiy institutlarning qanday shakllari mavjud? |
| 22. | Referendumda ishtirok etish huquqi deganda nimani tushunasiz? Referendumda ishtirok etish huquqi-fuqarolarning siyosiy huquqi sifatidagi qarashlarga o'z munosabatingizni bildiring. |
| 23. | O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining hududiy vakillik palatasi sifatidagi o'rnini ko'rsating. |
| 24. | Jamoatchilik nazoratining muhim bir shakli sifatida jamoatchilik muhokamasi haqida ma'lumot bering |

| | |
|-----|--|
| 25. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tashkil etish va o‘tkazish tartibini batafsil yoritib bering. |
| 26. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy huquqiy maqomini qonunchilik doirasida batafsil yoritib bering. |
| 27. | Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering. |
| 28. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqaradi? |
| 29. | Bosh Vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini berish tartibini va uning huquqiy oqibatlarini gapirib bering. |
| 30. | Bosh vazir qaysi holatlarda Prezident tomonidan o‘z lavozimidan ozod etiladi? |
| 31. | Vazirlar Mahkamasiga masalalarni kiritish va ko‘rib chiqish tartibini yoritib bering. |
| 32. | Qonunchilik palatasi spikerini saylash va muddatidan oldin lavozimdan bo‘shatish tartibi haqida gapirib bering. |
| 33. | Qonunchilik palatasi spikeri o‘rinbosarlarini saylash va muddatidan oldin lavozimdan bo‘shatish tartibi haqida gapirib bering. |
| 34. | Qonunchilik palatasi Kengashi faoliyatini yoritib bering. |
| 35. | O‘zini parlamentdagi muxolifat deb e‘lon qilgan fraksiyaning huquqlari haqida gapirib bering. |
| 36. | Senat raisi va o‘rinbosarlarini saylash va muddatidan oldin lavozimdan bo‘shatish tartibi haqida gapirib bering. |
| 37. | Qanday holatlarda Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin? |
| 38. | Qonunni qabul qilish jarayonini yoritib bering. |
| 39. | Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega sub’ektlar haqida ma’lumot bering. |
| 40. | Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari nimalardan iborat? |
| 41. | Xalq deputatlari kengashlari va hokimlar faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering. |
| 42. | Davlat hokimiyati tizimida sud hokimiyatining o‘rni va ahamiyatini yoritib bering |

| | |
|------------|---|
| 43. | O‘zbekiston Respublikasi sud tizimini yoritib bering |
| 44. | O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini qonunchilik doirasida batafsil yoritib bering. |
| 45. | Konstitutsiyaviy sud qanday vakolatga ega hamda ularni yoritib bering |
| 46. | Sudyalar oliy kengashining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yoritib bering |
| 47. | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Konstitutsiyaviy Sud va Sudyalar Oliy Kengashi tarkibining shakllanish tartibini tushuntirib bering |
| 48. | Sudyalar daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering. |
| 49. | Advokatura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering. |
| 50. | O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi masalasini yoritib bering. |